



## Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2025-yil yanvar-iyun oylari uchun


- I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Xorazm viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra viloyatda 3 577 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda, shundan 634 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,7 %) Urganch shahriga, 406 tasi (11,4 %) Urganch tumaniga, 385 tasi (10,8 %) Xonqa tumaniga, 327 tasi (9,1 %) Qo'shko'pir tumaniga va 276 tasi (7,7 %) Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

Viloyatda 2025- yilning yanvar-iyun oylarida 539 ta yangi sanoat korxonalari tashkil qilingan bo'lib, shularning 81 tasi Urganch shahriga, 69 tasi Xonqa tumaniga, 58 tasi Xiva tumaniga, 54 tasi Urganch tumaniga to'g'ri keladi.

Korxonalar soni  
1-iyul holatiga ko'ra



## II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 15 743,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,2 % ni tashkil etdi.

|                        | Hajmi,<br>mlrd so'm | Fizik hajm<br>indeksi, % da |
|------------------------|---------------------|-----------------------------|
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>15 743,7</b>     | <b>109,2</b>                |
| Urganch shahar         | 2 326,5             | 110,2                       |
| Xiva shahar            | 225,0               | 103,9                       |
| tumanlar:              |                     |                             |
| Bog'ot tumani          | 329,7               | 109,7                       |
| Gurlan tumani          | 222,4               | 70,6                        |
| Qo'shko'pir tumani     | 437,8               | 108,3                       |
| Urganch tumani         | 815,8               | 108,6                       |
| Xazorasp tumani        | 348,3               | 109,2                       |
| Tuproqqal'a tumani     | 6 994,5             | 109,5                       |
| Xonqa tumani           | 742,7               | 108,1                       |
| Xiva tumani            | 321,7               | 103,4                       |
| Shovot tumani          | 536,3               | 102,6                       |
| Yangiariq tumani       | 426,6               | 103,8                       |
| Yangibozor tumani      | 474,6               | 111,3                       |

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqala tumanida (114 928,1 ming so'm), Urganch shahrida (14 902,2 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (7 721,2 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 107,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, Urganch shahrida (108,5 %) va Yangibozor tumanida (109,6 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi  
yanvar-iyun oylarida



**Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari**

2025-yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 15 155,1 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (96,3 %) ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 1,2 mlrd so'm (0,01 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 478,3 mlrd so'm (3,0 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 109,1 mlrd so'm (0,7 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi  
2025-yilning yanvar-iyun oylarida





### III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 44 406,5 tonna paxta tolasi (2024-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 12,8 % ga kamaygan), 70 185,5 tonna shakar (24,1 % ga kamaygan), 2 089,9 tonna o'simlik yog'i (50,1 % ga kamaygan), 20 535,6 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (7,1 % ga ko'paygan) xamda 45 992 dona yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) (18,1 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

| Sanoat mahsulotlari                                                | 2023-yil yanvar-iyun* | 2024-yil yanvar-iyun* | 2025-yil yanvar-iyun |
|--------------------------------------------------------------------|-----------------------|-----------------------|----------------------|
| Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona | 34 944                | 38 953                | 45 992               |
| Maxsus yengil avtomobillar, dona                                   | 11 361                | 12 735                | 22 627               |
| Paxta tolasi, t                                                    | 45 374,8              | 51 883,8              | 44 406,5             |
| Shakar, t                                                          | 119 124,2             | 92 426,3              | 70 185,5             |
| O'simlik yog'i, t                                                  | 3 288,7               | 4 191,0               | 2 089,9              |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, t                                   | 26 966,2              | 19 172,3              | 20 535,6             |
| Paxta chigiti, t                                                   | 77 065,9              | 78 055,9              | 74 871,2             |
| Paxtadan yigirilgan ip, t                                          | 13 601,7              | 18 397,7              | 25 638,9             |

*\*2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**  
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)


### Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,0 % (2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,9 % (2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,5 %)ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,08 % ni (2024-yilning yanvar-iyun oylarida 0,08 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 40,8 % (30,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,6 % (5,1 %), quyi texnologiyali 49,8 % (46,8 %)ni tashkil etgan.

### Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan





### yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar-iyun oylarida

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2025-yilning yanvar-iyun oylarida 45 992 dona “ Damas ” (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,1 % ga oshdi), 22 627 dona maxsus yengil avtomobillar (77,7 % ga oshdi) avtomobillari ishlab chiqarildi.



Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan  
ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar, donada  
yanvar-iyun oylarida





### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 102,6 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 140,7 % ni tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari                                                       | 2023-yil yanvar-iyun* | 2024-yil yanvar-iyun* | 2025-yil yanvar-iyun |
|---------------------------------------------------------------------------|-----------------------|-----------------------|----------------------|
| Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s                         | 677,9                 | 599,2                 | 614,9                |
| <i>shundan:</i>                                                           |                       |                       |                      |
| yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)                | 677,9                 | 599,2                 | 614,9                |
| kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan) | 0                     | 0                     | 0                    |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal                                            | 61,3                  | 66,1                  | 93,0                 |

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 11,1 % ga ko'payganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 36,9 kamayganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 77,3 % ga oshganligi kuzatildi.

| Sanoat mahsulotlari                                                                             | 2023-yil yanvar-iyun* | 2024-yil yanvar-iyun* | 2025-yil yanvar-iyun |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|-----------------------|----------------------|
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm | 2 793 755,0           | 12 146 874,0          | 7 668 904,0          |
| Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv                                                           | 68 132 798,0          | 92 005 800,0          | 102 263 101,0        |

bilan ta'minlash  
bo'yicha  
xizmatlar, ming so'm

Xavfsiz chiqindilarni  
yig'ish bo'yicha  
xizmatlar, ming so'm

9 707 643,0


16 406 264,0

29 086 824,0

*\*2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

#### IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 392,0 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,5 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,7 % ni tashkil etgan.



#### V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

##### Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Xorazm viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha





statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### **Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif**

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

**B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**C** - Ishlab chiqarish sanoati

**D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

### **Metama'lumot uchun havola:**

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfqheheh5446456>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Sanoat va energetika  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**

U. Tadjimuratov  
62 227-77-88 (9010)

**Manzil:**

